

Homiladorlikning I trimestrida bo'lgan barcha homiladorlarimizda fibrinogen ko'rsatkichi $7 \pm 0,6$ g/l tashkil etdi. Homiladorlikning II va III trimestrlarida bo'lgan ayollarimizda ham fibrinogen ko'rsatkichi ($8 \pm 0,5$ g/l) sezilarli farq qilmadi Shifoxonadan tashqari pnevmoniya kuzatilgan 65,3% bemorlarda AQTV ko'rsatkichi 18 dan 20 sek.gacha natijani ko'rsatdi, qolgan ayollarimizda esa AQTV ko'rsatkichi normada (23-38 sek) ekanligini kuzatdik. Homiladorlikning I trimestrida bo'lgan 4 nafar bemordan 2 nafarida homilaning o'z-o'zidan tushishi kuzatildi. Muddatdan oldingi tug'ruqlar (<37 hafta) eng ko'p kuzatilgan qoniqarsiz natijalardan bo'lib, 3 nafar homiladorda 24-25 haftalik muddatda, va 5 nafar ayolda homiladorlikning 34-35 haftasida sodir bo'ldi, bu chaqaloqlarning 3 nafari homila ichi pnevmoniyasi bilan tug'ildi va 24-25 haftalik muddatda tug'ilgan chaqaloqlardan 2 nafari 2-3 kun o'tgach nobud bo'ldi. Shifoxonadan tashqari pnevmoniya belgilari kuzatilgan bemorlarda muddatdan oldingi tug'ruqlar darajasi pnevmoniya belgilari kuzatilmagan homiladorlarga nisbatan yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin. 49 nafar homilador ayollar ishtirokidagi mazkur tadqiqot mobaynida onalar o'limi holati kuzatilmadi.

Xulosa. Dunyo bo'ylab COVID-19 infeksiyasining masshtabi va u yetkazayotgan talofatlar davom etar ekan, COVID-19 ning homiladorlikga ta'siri borasida ko'plab noma'lum jihatlarni o'rganishimiz lozim. Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari ham shuni ko'rsatmoqdaki, COVID-19 infeksiyasi homiladorlik davrida va tug'ruqdan keyin ham ko'plab asoratlarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda va bu asoratlarning aksariyati qonning gemostaz tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

COVID-19 INFEKTSIYASINI O'TKAZGAN HOMILADOR AYOLLARDA HOMILADORLIK VA TUG'RUQ NATIJALARI

Indiaminova G.N.

*Samarqand davlat tibbiyot instituti, Samarqand,
O'zbekiston*

Kirish. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatini o'ylantirayotgan eng dolzarb muammolardan biri bu – COVID -19 pandemiyasi va bu kasallikni bartaraf etish yo'llarini aniqlashga qaratilgan izlanishlarga yo'naltirilgandir. Yangi turdagi koronavirus pandemiyasi dunyo bo'ylab hamon davom etmoqda va kasallanganlar soni 2 milliondan oshganligini kuzatish mumkin, xususan O'zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasini yuqtirganlar soni 78 mingdan oshdi. Homilador ayollar COVID-19 bilan kasallanish xavf guruhlari orasida muhim o'rin egallaydi. Homiladorlik bu fiziologik holat

bo'lishiga qaramasdan, qator a'zo va tizimlarning, xususan immun tizimining o'zgarishi bilan kechadi. Shu sababli homiladorlik davrida infeksiyon omillarga nisbatan sezuvchanlik birmuncha yuqori bo'lishini kuzatish mumkin. Hozirgi kunda dolzarb muammo hisoblangan COVID-19 kasalligini o'tkazgan homilador ayollarda homiladorlik davrining kechishi va tug'ruq natijalari yetarlicha o'rganilmaganligi sababli shu mavzuga murojaat qilishga qaror qilindi.

Maqsad: homiladorlikning turli davrlarida COVID-19 infeksiyasini o'tkazgan ayollarda homiladorlik va tug'ruq natijalarini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. COVID-19 infeksiyasini homiladorlikning turli muddatlarida o'tkazgan 30 nafar homilador ayollarda homiladorlik kechishi va tug'ruq natijalari retrospektiv usulda o'rganildi.

Natijalar. COVID-19 infeksiyasi bilan zararlanib Samarqand shahar 1-son tug'ruq majmuasida statsionar sharoitda davolangan 30 nafar homilador ayollarning tug'ruq tarixlari o'rganildi. Tekshirilgan 30 nafar homiladorlarning 12 (40%) nafari koronavirus infeksiyasini homiladorlikning I trimestrida yuqtirgan, 15 (50%) nafari homiladorlikning II trimestrida o'tkazgan va bu ayollarning 3 (10%) nafari homiladorlikning III trimestrida COVID-19 infeksiyasini yuqtirgan. COVID-19 infeksiyasini o'tkazgan 30 nafar ayollarning 4 (13,3%) nafarida koronavirus infeksiyasi og'ir darajasida: tana haroratining ko'tarilishi, kuchli yo'tal, o'pka pnevmoniyasi (o'pka to'qimasining 30% gacha zararlanishi) bilan namoyon bo'lgan. Homiladorlarning 18 (60%) nafarida o'rta og'ir darajada: tana haroratining $37,5^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilishi, yo'tal va faringit bilan kechgan, 8 (26,7%) nafar homiladorlarda esa yengil darajada: ta'm va hid sezmaslik hamda holsizlik bilan namoyon bo'lgan. Homiladorlikning I trimestrida COVID-19 infeksiyasini o'tkazgan 12 nafar ayollardan 2 nafarida koronavirus infeksiyasining og'ir darajada kechgan va bu ayollarning 1 nafarida homiladorlikning 12 haftagacha bo'lgan muddatida homilaning o'z-o'zidan tushishi kuzatilgan, yana bir nafarida esa homiladorlikning 23 haftasida muddatidan oldingi tug'ruq sodir bo'lgan. Koronavirus infeksiyasini o'rta og'ir darajasini o'tkazgan 18 nafar homiladorlarning 4 nafari I trimestrida, 13 tasi II trimestrida va 1 nafari III trimestrida bo'lgan. Homiladorlikning II trimestrida koronavirus bilan kasallangan homiladorlarning 2 nafarida homiladorlikning 24-26 haftasida muddatidan oldingi tug'ruq sodir bo'lgan. COVID-19 infeksiyasini III trimestrida o'tkazgan 3 nafar ayollarning barchasida muddatli tug'ruq sodir bo'lgan.

Xulosa. Shunday qilib, COVID-19